



Makhmudkhoja Bekhbudi

Bilol MUKHAMMADIEV¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
15 April 2025
Accepted 25 April 2025
Available online
25 May 2025

Keywords:

Jadid Bekhbudiy,
"Oyna" (Mirror),
"Samarqand",
"Padarkush" (Patricide),
"Turon" troupe,
New Method school.

ABSTRACT

This article illuminates the life journey of Makhmudkhoja Bekhbudi, the founder and father of Central Asian Jadidism, his contributions to the people, his written drama "Padarkush" (Patricide), and other aspects of his work.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4/S-pp267-270>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mahmudxo'ja Behbudiy

Kalit so'zlar:

Jadid Behbudiya,
"Oyna",
"Samarqand",
"Padarkush",
"Turon" truppasi,
Yangi usul maktabi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'rta Osiyo jadidchiligi asoschisi va otasi Mahmudxo'ja Behbudiyning hayot yo'li, xalq uchun qilgan xizmatlari, yozgan "Padarkush" dramasi, va boshqalar yoritiladi.

Махмудходжа Бехбудий

Ключевые слова:

Джадид Бехбуди,
"Ойна",
"Самарканд",
"Падаркуш",
труппа "Туран",
новометодная школа.

АННОТАЦИЯ

В этой статье освещается жизненный путь Махмудходжи Бехбуди, основателя и отца джадидизма в Средней Азии, его заслуги перед народом, написанная им драма "Падаркуш" и другие аспекты его деятельности.

¹ Student, Namangan State University. E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yurtimizdagi og'ir iqtisodiy, siyosiy, madaniy holatlar, xalqni ilg'or ziyoli qismi tomonidan xavotirga soldi. Ular xalqni o'zligini yo'qotayotgani, zalolatga tushayotganini ko'rib, buni oldi olinmasa og'ir oqibatlariga olib kelishini yaxshi bilar edilar. Shuning uchun jadidlar tomonidan, xususan Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yangi maktablar, darsliklar tayyorlab, ommani uyg'otishga harakat qildilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 – yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinida Baxshitepa qishlog'ida diniy olim oilasida dunyoga kelgan. Behbudiyning otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodi, ona tomondan bobosi Noyozxo'ja Urganchlik bo'lib, amir Shohmurod hukmronlik qilgan davirda ko'chib kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 6-7 yoshida tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib savod chiqardi, otasi Behbudxo'jadan esa Qur'ondan saboq olib, qisqa muddatda qorilik martabasiga ko'tarildi. 15 yoshga kirganda yana bir tog'asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada tahsilni davom ettiradi va arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo'yicha bilimlarni kengaytirdi.

1893-yili onasi, 1894 – yili esa otasi vafot etdi. Otasi vafotidan biroz avval uylangan Behbudiy to'rt o'g'il, bir qiz ko'rgan. Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinroq Buxoro madrasalaridan birida tahsil olgan. Buxoroda mullalar bilan kelisha olmagan bo'is Samarqandga qaytib kelgan.

18 yoshga yetganda Behbudiy madrasa ta'limini tugatadi va Samarqand viloyati Chashmaob (Chashmai ob) volostida qozilik qilgan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida mirzalik lavozimida ishlay boshladi. Tog'asi huzurida ikki yillik faoliyat, qozilikdan bo'shagandan keyin Kobud volosti qozisi Mulla Zubayir Yaxshiboy o'g'li qo'lida mirzalik ishini davom ettirishi uning dunyoqarash va kelajak faoliyatida katta o'zgarish yasaydi. U shariat qonunlarini puxta o'zlashtiradi va mufti lavozimini egallaydi. 1916-yilgacha muftilik faoliyati bilan muntazam shug'ullanadi. Bu orada qisqa vaqt qozi vazifasini ham bajargan, ammo ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanish katta mehnat va mablag' talab qilgani bo'is Behbudiy qozilikdan voz kechib, muftilikning yonida tijorat bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan.[2. – B 7 – 11].

1899 – 1900-yillari Buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga bo'lgan. Behbudiyni sakkiz oylik safari beiz ketmadi. Bir tomondan, jadid gazetalari va ikkinchi tomondan, Kavkaz, Turkiya va Misirda ko'rgan o'quv muassasalari ta'sirida u 1903-yili Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajab amin qishloqlarga borib, o'sha yerlik ma'rifat ahli bilan hamkorlikda usuli jadida maktablarini ochdi va ular uchun "Risolai asbobi savod" (1904), "Risolai jug'rofiyai Rusiy" (1905), " Kitob at ul-atfol" (1908), " Amolyoti islom" (1908) va " Tarixi islom" (1909) singari kitoblarni yaratgan.

Behbudiy siyosiy-ijtimoiy qarashlarining shakllanishida sayohat, ayniqsa, katta rol o'ynadi. U 1903 – 1904-yillarda Moskva va Peterburgda bo'ldi, 1906 – yili Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodga bordi. 1914 – yili esa ikkinchi marotaba arab mamlakatlariga sayohat qildi. Agar bu safarning bir qismi Nijniy Novgorodda 1906 – yil 23 – avgust kuni ochilgan Rossiya musulmonlari qurultoyi, Nijniy Novgorod yarmarkasi paytida bo'lib o'tgan milliy ishlariga doir majlis tufayli amalga oshgan, binobarin, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, ikkinchi bevosita ma'lum maqsad bilan qilingan sayohatlaridir. Ularning har ikkisi ham Behbudiy ijtimoiy qarashlarning shakllanishida chuqur iz qoldirgani shubhasiz[5. – B 68].

Bu davrda taraqqiyparvarlar tomonidan turli gazeta va jurnallar nashr etildi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan nashriyot ishlari jadal olib borildi. "Nashriyoti Behbudiya" deb atalgan xususiy nashriyot, Buxoro, Qo'qon, Namangan, Toshkent, Andijon va Samarqandda kitob do'konlarini tashkil qildi. Samarqandning "yangi" shahar qismida "Behbudiya" kutubxonasini ochdi. Bu kutubxonada kitob o'qish bilan birga Istanbul, Misr, Beyrut, Qozon, Bog'chasaroy, Boku, Orenburg, Eron, Hindiston, Afg'oniston, Peterburg va Turkistonda chop etilgan kitoblarni sotib olish imkoniyati ham mavjud edi.[3. – B 339].

Xalq zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotdan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda o'z qabohatini ham malohatini ham ko'ra olsin. Mazkur ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr sari boshladi. "Padarkush" shu tariqa maydonga keldi. Biroq uni dunyo ko'rishi oson kechmadi. Bunga sabab: birinchidan, chor hukumati mustamlaka Turkistoni ma'rifat yo'liga kirib, o'z huquqlarini tanishdan manfaatdor emas edi; 1916-yildagi Turkiston general – gubernatori N.R. Kuropatkinning o'z kundaligiga yozgan " Biz tubjoy xalqni taraqqiyotidan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik" degan so'zlarini eslash kifoya. Ikkinchidan, turg'unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik. Xullas 1911 – yilda yozilgan "Padarkush" dramasi 1913 – yilda gina bosilib chiqildi. " Padarkush" bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun bir yilga yaqin vaqt ketdi. Muallif bu haqidagi xatlarga javoban kinoyaomuz: "Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatr sahnasiga chiqib masxarabozlik qilsa", deb yozgan.

"Padarkush" o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Behbudiy " Milliy fojia" deb atagan, 3 parda, 4 manzarali ushbu drama hajman juda ixcham, mazmuni nihoyatda sodda va jo'n. U jaholat va nodonlik, o'qimagan bolaning buzuvchi yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi.

"Padarkush" dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo'yildi. O'sha davr mahalliy matbuotlardan biri shunday yozadi: "Xalq nihoyatda ko'p kelib, bilek yetmagani va joyni yo'qligi uchun uch – to'rt yuz kishi qaytib ketdi". Drama Toshkentda 1914-yil 27-fevralida qo'yildi. Abdulla Avloniyning "Turon" truppassi Kolizeyda o'z faoliyatini mana shu " Padarkush" bilan boshlagan. "Turon" truppassi 1914 – 1916-yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqqan.

1913-yildan Behbudiy tomonidan " Samarqand" gazetasi chiqarildi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ngra to'rt sahifada chop etilgan. 45 ta sondan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to'xtagan.[4. – B 220 -222].

Behbudiy 1913-yildan "Oyna" jurnalini ham chop eta boshlagan. " Oyna" o'lkada o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnal edi. U xalq orasida ancha mashhur bo'lgan. Boshida haftada bir, 1914-yildan esa har o'n besh kunda chiqqan. Jurnal 2 yil davomida 68 ta son (jami 1720 bet) dunyo yuzini ko'rib, 1915-yil 15-iyunida nashr qilinishi to'xtagan.[1. – B 291].

Jurnalda o'zbek, forsiy tillarda qisqa she'rlar, e'lonlar, o'zgarishlar yozib borilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 1919-yilda Shahrisabzda bo'lgan paytida ayg'oqchilar tomonidan o'zi va hamrohlari qo'lga olinib, Qarshiga olib kelinadi. Ikki oy zindonda o'tirgandan

so'ng, zindon yonidagi "podsholik chorbog'ida" Nuriddinxo'ja Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li tomonidan o'ldirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy bu davr O'zbekiston tarixidagi eng buyuk shaxslardan edi. Xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otish, milliy g'urur, an'ana va o'zlikni anglash kabi xislatlarini kuchaytirish maqsadida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Xalq savodini oshirish uchun o'z mablag'i hisobidan kutubxona, maktab, darslik, gazeta va jurnallar nashr qildi. Xalq uyg'onmasa qanday oqibatlarga olib kelishini teatrda "Padarkush" dramasi bilan ko'rsatib berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. R.Shamsutdinov, Sh. Karimov, O'. Ubaydullayev Vatan tarixi 2 -Toshkent: Sharq- nashriyot matbaa aksiyadorlik kompanyasi bosh tahriryati, 2010. 368 b.
2. Z. Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy, - Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2022. 156 b.
3. A.Асқаров. Узбекистон тарихи. (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). -Т.: "Маънавият". 2022, 456 b.
4. Б. Косимов. Миллий уйғониш: жасорат, ма'рифат, фидойилик. – Тошкент: "Манавият", 2002. 400 b.
5. Р. Шарипов. Туркистон Жадидчилиқ ҳаракати тарихидан. - Тошкент: "Укитувчи"- 2002. 176 b.